

QO'G'IRCHOQ TEATRIDA AKTYOR QO'LINING AHAMIYATI

Najmiddinova Sarvar Samariddinovna

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'ona Mintaqaviy filialining

Qo'girchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar

Ravshanjon O'taganov

najimiddinovasarvara@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, Qo'g'irchoq teatr aktyorlari uchun qo'l va barmoq xatti-harakatining plastikasi muhim ahamiyatga ega ekanligi va aktyor asar personajining qiyofasini avval o'zi his etib, so'ngra qo'lining xatti-harakati orqali namoyon etib berishiga oid muhim nuqtalari ta'riflangan. Qo'g'irchoqbozning qo'li egiluvchan va kuchli bo'lishi uchun barmoq mashqlarining xususiyatlari muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, maqolada qo'g'irchoq teatr aktyorlariga zarur bo'lgan qo'l mashqlari haqida ham ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Qo'l, barmoq, xatti-harakat, qo'g'irchoqboz, mashq, aktyor, qo'g'irchoq, plastika.*

Osiyo qo'g'irchoq teatri - bu shunchaki tomosha, shunchaki ermak o'yin emas, balki butun bir qit'a xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, fol'klori, tasviriy san'ati va albatta tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixiy - badiiy hodisadir.

(Muhsin Qodirov)

Qo'g'irchoq teatr aktyorlari qo'l xatti-harakati va barmoq plastikasi imkoniyatlariga ega bo'lsa, aktyor sahnada soatlab qo'g'irchoq o'ynata oladi va asar qahramonini maqsadga muvofiq yoritib bera oladi.

Qo'g'irchoqbozlar qo'l harakatchanligini rivojlantirish uchun barmoq mashqlarini soddasidan boshlab murakkab mashqlar yordamida qo'l, barmoq, yelka harakatlari erkin va egiluvchan holatiga ega bo'ladi. Qo'l uchun bajarilayotgan har qanday mashqlarda aktyor bor e'tiborini barmoq va qo'llariga qaratishi lozim. Aktyor sahnada qo'g'irchoq bilan qancha erkin holatda ishlasa, yelka va qo'llar toliqmaydi. Chunki, qo'g'irchoq teatr aktyorlari qo'llari orqali o'z kechinmalarini va tasavvurlarini namoyon etib berish imkoniyatiga ega.


Quyida esa Qo'girchoqbozlar uchun zarur bo'lgan bir nechta mashqlar ko'rsatib o'tilgan:



1. Ushbu mashqda qo'llar yuqoriga ko'tarilgan va muvozanatni saqlagan holatda turadi.



2. Ushbu mashqda qo'llar kaft pastiga qaratiladi va sekin asta yuqoriga ko'tariladi.



3. Ushbu mashq e'tibor talab etadi. Tezlik bilan aniq holatda barmoqlar navbatmanavbat bir biriga tekiziladi ya'ni barmoqlar ketma-ketlikda yopib ochiladi.

Talabanning qo'l harakatchanligini tarbiyalash uchun qo'l va barmmoqlar ishtirokida bajariladigan har xil fizik mashqlar hamda yalang'och qo'llari orqali yaratilgan turli-tuman harakatga moyil bo'lgan turfa obrazlar kompozitsiyasiga ega bo'lgan ijodiy jarayon "Ekzersis" deb aytiladi. Bu ijodiy jarayonga yalang' och, qo'lqopli qo'llar hamda turli detallar ishtirokida qo'llar orqali ko'rsatiladigan turli-tuman har xil xarakterga mos keladigan «obrazlar» kompozitsiyasi kiradi.

Obrazli qo'llarni yaratish uchun talabalar ijtimoiy hayot hamda tabiat olamida sodir bo'ladigan turli voqea, hodisalarni kuzatib, mazmun mohiyatini o'rganishlari hamda o'qigan va ko'rgan lavhalarga ijodiy yondoshgan holda undan ijod jarayonida foydalanib, so'ng to'siq ustida maqsadli mantiq va mazmunga ega bo'lgan kichik badiy lavhalar tayyorlashlari mumkin. A. Qodiriy aytganidek «yozuv-

chi turmushni har tomonlama o'rganishi, uning har sohalaridan xabardor bo'lishi kerak». Qo' g'irchoq teatrida qo'llar orqali obraz yaratish jarayoninig uch xil xususiyati bor.

1. Aktyor qo'lining tasvirlovchi xususiyati.
2. Harakat nuqtasi.

3. Aktyor qo'lining harakat qilish gobiliyati.

Qo'g'irchoq aktyorining ijod jarayonida bu uch yo'nalish bir-biriga bog'liq holda kechadi. Talabalar o'zlarining harakatchan qo'llari bilan har xil hayvon, qush, baliq, gul, daraxt, bola, chol kabi obrazlar g'oyaviy jihatdan turmush tarzi va ularning xarakteriga xos xarakterligini yaratib, ularni o'zi yashagan muhitda tasvirlab, so'ng shart-sharoitdan kelib chiqqan holatda harakatga keltiriladi. Bu jonlanish jarayoni oddiy jismoniy harakatdan maqsadli murakkab psixologik (ko'rish, eshitish, qabul qilish, song ozgarib javob qaytarish va h. q. lar) xatti-harakatlarga aylanadi. U shunday qilib bir butun holatda pog'onama-pog'ona ijodiy jarayonga o'tadi. Bunday holatdagi ijodiy jarayon asta-sekin murakkablashib, maqsadlar va vazifalar ozgarib, vogealar tizmasi murakkablashib etyudlarga o'tiladi.

Etyud ishlash jarayoni jonli planda qanday kechgan bo'lsa, to siq usti maydonchanning holat imkoniyatdan kelib chiqib, qo'l yalang'och holatda, qo'lqop kiygan holatida, dumaloqcha (sharcha) va qo'lga kiyilgan har xil predmetlar ishtirokida fantastikaga asoslangan har xil plastik xatti-harakat qilishiga imkoniyat tug'iladi.

Xulosa qilib aytganda, Qo'g'irchoq teatri aktyorlari uchun qo'l harakatchanligi, plastikasi va ekzersiz mashqlar muhim ahamiyatga ega. Qo'g'irchoqbozlar sahnada obraz yaratish jarayonida boshqa teatr yo'nalishlaridanda ko'ra ko'proq imkoniyatlari mavjud. Agar aktyor qo'l va barmoqlari ustida ishlasa va ijodkorlarning darsliklarini yaxshi o'zlashtira olsa, u dunyo sahnasini keza oladi. Sababi Qo'g'irchoq teatri ibratli va ma'no-mazmunga boy qalb ko'zgusidir. Ushbu sohani tanlagan barcha yoshlar, qo'g'irchoqbozlik yo'nalishi paydo bo'lishi haqida ijodiy izlanishlar orqali tadqiqotlar amalga oshirishi, o'z ustida izlanishi zarur. Yuqorida yozib o'tganimdek biz yoshlar uchun ko'plab ijodkorlarning ijod yo'li maktab bo'lib xizmat qilmoqda. Bu maktabdan ilm olib, o'z ustida ishlagan ijodkor mukammal aktyor, rejissor yoki qo'g'irchoq ustasi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maryam Ashurova. Aktyorlik mahorati. Qo'g'irchoq teatri san'atida aktyorlik mahorati darslik. Toshkent-2021.
2. R.J. O'taganov. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari. Toshkent, Innovatsiya-Ziyo-2020.